



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



MODERN AFGHAN WRITER R. ZARYOB AND A. CHEKHOV

Nargiza Kaxramonovna Kabirova

*Ph.D, Associate Professor of Tashkent State University of Oriental Studies,
Tashkent, Uzbekistan*

Abstract: This article compares the works of Rahnavard Zaryob, the great writer of modern Afghan storytelling, and the works of the famous Russian scientist Anton Chekhov. The most important aspect of the work of these two artists is that their stories focus on the personality of a single person. Such images are depicted in the vortex of socio-political, socio-economic, vital and domestic environment. In this way, the writer penetrates into the most complex and important aspects of social life through the medium of personality.

Keywords: story, artistic image, landscape, portrait, composition, image, symbol, human psyche.

ZAMONAVIY AFG‘ON YOZUVCHISI R.ZARYOB VA A.CHEXOV

Kabirova Nargiza Kaxramonovna

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti v.b.dotsenti, PhD
Toshkent, O‘zbekiston*

Annatsiya: Mazkur maqola zamonaviy afg‘on hikoyachiligining zabardas yozuvchisi Rahnavard Zaryob ijodi va taniqli rus olimi Anton Chexov asarlari qiyosiy o‘rganildi. Bu ikki ijodkor ijodining eng ahamiyatli tomoni shundaki, ularning hikoyalarida yolg‘iz inson shaxsiyatiga katta e‘tibor qaratiladi. Bunday obrazlar ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, hayotiy-maishiy muhit girdobida tasvirlanadi. Shu yo‘l bilan yozuvchi shaxs vositasida ijtimoiy hayotning eng murakkab va muhim jabhalarigacha kirib boradi.

Kalit so‘zlar: hikoya, badiiy tasvir, peyzaj, portret, kompozitsiya, obraz, ramz, inson ruhiyati.

Аннотация: В статье сравниваются произведения Рахнаварда Зарёба, великого писателя современной афганской сказки, и произведения известного русского учёного Антона Чехова. Важнейшим аспектом творчества этих двух художников является то, что их рассказы сосредоточены на личности одного человека. Такие образы изображены в водовороте общественно-политической,

социально-экономической, жизненной и бытовой среды. Таким образом, писатель проникает в самые сложные и важные стороны общественной жизни через посредство личности.

Ключевые слова: рассказ, художественный образ, пейзаж, портрет, композиция, образ, символ, психика человека.

Inson xotirasi muqaddas ajdodlar yeta olmagan, qila olmagan ishlar, maqsadlar orzuga, armonga aylansa, uni avlodlar davom ettirishi kerak. Bunday asarlar adib ijodining kelajagiga umid uygʻotadi. Hikoyalardagi ayrim lavhalar kattaroq janrda yaratilgan asardan olingan fragmentlarga oʻxshaydi. Shu bois adib qahramonlari hali tugamaydigan, davomli voqealar ichida yashaydilar. Yozuvchi inson qismatini asl va soxta tuygʻularning murosasiz kurashi orqali koʻrsatadi. Hikoyalarda inson ruhiyatida kechayotgan ziddiyatlar, unsiz iztiroblar hajman qisqa, mazmunan keng tasvirlanadi [1p. 376]. Bunga koʻra: «Hikoyanavisning mahorati eng avval hikoyabop voqeani tanlay olishi bilan belgilanadi. Zero, har qanday voqea ham hikoyabop emas, ijtimoiy-estetik qimmatga molik voqeani tanlay bilish lozim. Chunki hikoyada xarakterning ayrim chizgilarigina namoyon boʻladi, shu bois voqeaning oʻzi (mas., «Anor», «Bemor», «Dahshat») ahamiyatli mazmun-mohiyatni namoyon etish uchun yaroqli boʻlishi lozim» [2p. 15]. Demak, R.Zaryob asarlaridagi voqealar ham aynan adabiyotshunos D.Quronov taʼkidlaganidek, «hikoyabop» va «ijtimoiy-estetik qimmatga molik» hisoblanadi.

Adib ijodida oddiy voqea-hodisalar, oddiy xalq hayoti shunday ajoyib ifodalanadiki, xuddi real hayot voqealari badiiy asar mohiyatiga singdirilgandek. Adibning «پاها» («Oyoqlar»), «مزدور» («Mardikor») kabi asarlarida hikoyaning janriy xususiyatlari - kompozision tuzilishning murakkabligi, oʻtkir syujetlilik, konfliktlar drammatizmi va kutilmagan yechim yetakchilik qiladi. Masalan, «Oyoqlar»da «kutilmaganlik effekti» hodisalari kambagʻal afgʻon oilasida sodir boʻladi. Asarda onaning eng katta qaygʻusi farzandining nogironligi. Asarda onaning farzandiga yordam berish uchun oʻz jonini ham ayamasi koʻrsatilgan. Hikoya boshdan-oxir inson qalbini larzaga soluvchi tasvirlardan iborat. Qalblarni ezuvchi voqea shundan iboratki, afgʻon ayoli oʻzining chekkan zahmatlari evaziga maqsadiga erisha olmaydi, balki johillik qurboni boʻladi. Afgʻon jamiyatida faqirona turmush kechirayotgan erkakning kuchi yanada ojiz boʻlgan ayoliga yetadi va bir ogʻiz soʻz bilan nogiron farzandini himoya qilmoqchi boʻlgan ayolini chavoqlab tashlaydi. Asarni oʻqir ekanmiz, bunday johil odamlarga boʻlgan nafratimiz yanada kuchayadi.

Adib hikoyalardagi ayol qahramonlar erkaklar hukmronligi ostida ezilgan, tinmay haqoratlangan va xoʻrlangan tarzda tasvirlanishi tasodifan Chexovning «Kulfat» nomli hikoyasini koʻz oldimizda gavdalandiradi. Asar qahramoni temirchi usta qirq yillik umrini ichkilik bilan oʻtkazadi. Temirchi hayoti davomida faqatgina ikkita narsani bilgan, yaʼni ichish va xotinni kaltaklash. U shu vaqt mobaynida qirq yil umri qanday oʻtib ketganini ham bilmay qolgan. Chexov ijodidagi ana shunday umrning qadriga yetmaydigan, madaniyat va maʼnaviyatdan yiroq qahramonlar R.Zaryob ijodida ham haqqoniy aks ettiriladi. Bunday qahramonlar yozuvchi ijodida

birinma-ketin shakllanib boradi. Davrning sodda odamlari hayoti R. Zaryob ijodining ajralmas qismi hisoblanadi.

«Mardikor»da dramatik holatlarning ketma-ketligi, vaqtning keskinligi, Abbosning betoblighi, qaynonaning zulmkorligi, kelin Hovarning aybsiz-aybdorligi hikoyani kutilmagan yechimga olib keladi. Rahnavard Zaryobning hikoyalarga diqqat bilan qaralsa, ularda dramatik taranglik, kutilmagan yechim ustuvorlik qiladi. Adib turli mavzularga e'tibor qaratib, asarlar bayonidagi soddalik va mahorat bilan qahramon obrazini yaratishga erishganligi bois zamonaviy Afg'oniston dariy hikoyachiligining mashhur yozuvchilaridan biriga aylandi. Uning Afg'oniston dariy adabiyotiga olib kirgan eng ahamiyatga molik yangiligi shundaki, u qo'l urgan jiddiy mavzular soddalik bilan ishlangan. Bu mavzular esa xalqning oddiy insonlari hayotidan hikoya qiladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, R.Zaryob hikoyalarida ko'zga tashlanadigan asosiy xususiyat mavzular ko'lamining kengligidir. Mavzular ko'lamdorligi va xilma-xilligi ko'proq yozuvchining ko'pni ko'rgani, xalq hayoti, ichki dardi, fe'l-atvoriga xos jihatlarni mukammal bilishida namoyon bo'ladi. Ayni paytda yozuvchi hikoya texnikasini juda yaxshi egallagan. Uning asarlarida xalq va millat ruhiyati, shaxs psixologiyasi, muloqot amaliyotiga xos nozik nuqtalar, peyzaj tasviri mukammal darajada ishlangan. Bularning barchasi yozuvchining noyob iste'dodi bilan mushtarak holatda yuksak badiiyat hodisasi sifatida namoyon bo'lgan. Ba'zi asarlarida u xudbin, zolim, boylikka o'ch, xulqi yomon, irodasiz kishilar obrazini hajviy bo'yoqlarda tasvirlaydi.

R.Zaryob hikoyalarining tadqiqidan yana shu narsa seziladiki, adib rus hikoyanavisi A.P.Chexov ijodini ham puxta egallagan. Yuqorida qiyoslaganimizdek, R.Zaryob ijodida Chexov qahramonlariga parallel obrazlar uchraydi. Jumladan, R.Zaryob yoshlar va bolalar mavzusiga bag'ishlangan hikoyalarida yoshlarning oila va millat hayotidagi o'rni, hayotning yoshlar nazaridagi ba'zi tomonlari, yoshlik yillarini qo'msash, sog'inch, bola va muhit munosabati, bola va o'gay ona to'qnashuvi, bola shaxsiyatining shakllanishi, ta'lim va tarbiyasi singari masalalar xususida to'xtaladi.

R.Zaryobning «تابوت ساز» [3p. 213-222] («Tobutsoz») hikoyasidagi qahramonning xatti-harakatlari A.Chexovning «Rotshildning skripkasi» hikoyasi g'oyasiga yaqinligi bilan ajralib turadi. Chexov hikoyasidagi bosh qahramon tobutoz usta Yakov bo'lib, asarda uning xarakteridagi illatlar ochib beriladi. Asarda odamlar ichidagi xarakterlarning farqlarini ko'rsatish vositasidan samarali foydalanilgan va bu hikoya mohiyatini yanada kuchaytirgan. Qahramonlarning ko'rinishida, yurish-turishida, xatti-harakatida, atrofida g'ilarga munosabatida bir xillik, o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Yozuvchi qahramonlar xarakteridagi o'ziga xos belgilarni jonli aks ettirishga erishgan. Bilamizki, hikoya janri epik turning eng kichik janri hisoblanadi. Ammo hikoya hajman ixcham bo'lishiga qaramay, mahoratli yozuvchi shu janr doirasida qahramonning butun hayoti, ichki kechinmalarini tasvirlashga erishishi mumkin. Yuqorida tahlilga tortilgan hikoya voqeligida ham atigi bir nechta muhim epizodlar asosida ish ko'rilgan bo'lsa-da, uning mohiyatiga keng mushohada, og'ir hayotiy kechinmalar, qahramonni umri davomida qiynab kelayotgan faqirlik, turmush tashvishlari-yu kundalik

qiyinchiliklar, umuman, qashshoq odamning turmush yo'li to'laligicha singdirib yuborilgan.

Ma'lumki, davrning sodda odamlari hayoti Chexov ijodining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu haqda o'zbek adabiyotshunosi R.Rahimjon shunday yozadi: «Ijod nihoyatda sirli, nozik jarayon. Yozuvchiga tashqaridan bo'ladigan sun'iy ta'sir, majburiy turtki ijobiy natija bermaydi. Agar Chexovga rus qishloqlarini zulmatga burkab tasvirlama, nega mujikning sho'rvasida suvarak suzib yuradi, nima uchun Kiryak xotinini molday uradi, qabilidagi tanbehlar berilganida, ayting, rus adabiyotida Chexov degan ulkan yozuvchi paydo bo'larmidi? Qalbgga buyruq berib bo'lmaydi. Qalb – ichimizdagi avtonom hodisa. Ijodiy jarayonni tashqaridan qolipga solishga, qandaydir tor va o'tkinchi maqsadlarga bo'ysundirishga urinishni men insoniyatga qarshi jinoyat sifatida baholagan bo'lardim»[4p. 151]. Yozuvchining «ichi»dagi ana shunday avtonom hodisalarning o'ziga xos tasviri va undan kelib chiqadigan estetik ma'no hikoyalarida aks etadi.

Xuddi shunday sodda odamlarning murakkab turmush tarzi R.Zaryob hikoyalarining ham asosini tashkil etadi. Adib hikoyalari ham Chexov hikoyalari singari yuksak saviyada yozilgan. U hikoyalari uchun tanlagan hayotiy lavhalar keng ma'noga ega va bu janr imkoniyatlariga to'la mos keladi. Hikoyalari markazida oila, undagi turli voqealar, ayollar haqidagi ba'zi qarashlar, shuningdek, o'sha davr kishilarining o'y-tashvishlari, quvonch va iltiroblari ifodasi keng o'rin egallab, o'ziga xos obrazlar asarlariga kirib keldi.

Shuningdek, R.Zaryob ijodining eng ahamiyatli tomoni yana shundaki, uning hikoyalarida yolg'iz inson shaxsiyatiga katta e'tibor qaratiladi. Bunday obrazlar ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, hayotiy-maishiy muhit girdobida tasvirlanadi. Shu yo'l bilan yozuvchi shaxs vositasida ijtimoiy hayotning eng murakkab va muhim jabhalarigacha kirib boradi. Jamiyatdagi «kichkina odam» hayotini barbod qilgan, uni faqirlikka giriftor etgan ishsizlik, ochlik, kambag'allik, savodsizlik, qaramlik, qo'nimsizlik singari muammolar ijtimoiy hayot haqiqati sifatida tasvir etiladi.

“Psixologik timsollardan foydalanish asarning badiiy qurilmasi – syujeti va kompozitsiyasiga, uning obrazlari strukturasi ham ta'sir etmay qolmaydi. Yozuvchi shartli-ramziy obrazlarga murojaat qilar ekan, ulardan o'zi tanlagan mavzu va muammo, konflikt va xarakterlarni to'laqonli ifodalashga xizmat qildirishni nazarda tutadi. O'quvchiga aytmoqchi bo'lgan fikrini, ijodiy niyatini yetkazishda avtor uchun keng ko'lamda obrazli mushohada yuritishiga imkoniyat yaratiladi. Shartli-ramziy timsollar ayniqsa, xarakterlararo to'qnashuvlarni ifodalashda avtorga juda qo'l keladi va o'quvchining tushunishi uchun yengil sharoit vujudga keltiradi.” [5p. 131]

Hatto adibning «kichkina odam»i shu qadar haqir va benavoki, uning aniq ismi ham yo'q. Hikoyalarda ular mavhum va umumlashtiruvchi nom bilan ataladi, xolos. Adib ularni «ayol», «odam», «bola», «tilanchi», «yetim», «daydi» degan ismlar bilan ataydi. Bunday hikoyalar markazida ishchilar, bolalar, ayollar atrofida kechadigan voqealar turadi. Shuningdek, hammol, ofisiyot, xizmatkor singari «kichkina odam»larning shaharga xos boshqa tiplari ham e'tiborni tortadi. Agar yozuvchi o'zining qishloq hayoti voqealari tasvirlangan hikoyalarida qishloq

kishilari va dehqonlarga xos nutq elementlaridan mohirona foydalangan bo'lsa, shaharga oid hikoyalarida shahar odamlarining qurama tabiatga ega nutqlarini mahorat bilan ifodalaydi. Ayni paytda ishchilar nutqidagi terminlar, jargon va ifoda shakllarini hikoya uslubiga singdiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2018. – B.376.
2. Rasulov A. O'zlashtirish estetikasi ajoyibotlari / Badiiylik – bezavol yangilik: Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. – T.: “Sharq”, 2007. – B.15. رهنورد
3. زریاب. داستان ها. «تابوت ساز» - کابل - ۱۳۹۵. ص. ۲۲۲/۲۱۳
4. Normatov U., Rahimjon R. Nazariya va adabiy–Badiiy jarayon // Jahon adabiyoti. 2000. mart. –B.151.
5. Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi: f.f.d.,diss. –T., 2002. –B.131.
6. Kabirova N.K. Rahnavard Zaryob hikoyalarining poetikasi (obrazlar talqini, badiiy tasvir va uslub masalalari): Monografiya. –T.: 2021.
7. Х.Асоев. Развитие жанров в прозе на дари. –Душанбе.: 1987.
8. Асоев Х. Формирование жанровые системы в прозе Афганистана на языке дари. –Душанбе: Донеш, 1988.
9. Кабирова, Н. (2018). Мастерство создания сюжета в рассказах Рахнавард зарёб. *Восточный факел*, 1(1), 97-100.м